

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI**

**TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI**



**TOSHKENT SHAHRINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2021 YIL  
YANVAR-IYUN**

**Toshkent – 2021**

## SO'Z BOSHI

Toshkent shahrining statistik axborotnomasi – Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Toshkent shahar statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2021 yil yanvariyun oylari yakunlari bo'yicha Toshkent shahrining asosiy statistik ko'rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda statistik ko'rsatkichlar Yevropa hamjamiatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahrining iqtisodiy faoliyat turlari umum davlat tasniflagichi (2 tahrir) bo'yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mayjud faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo'llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo'naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi faoliyat turlarining ulush ko'rsatkichlari yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya'ni, YaHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar ta'siri chiqarib tashlangan).

Nashr 12 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo'lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyati, tashqi iqtisodiy aloqa, sanoat, investitsiya va qurilish, transport, tovar va xizmatlar bozori, demografiya va mehnat bozorlarining rivojlanish dinamikasi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

## Qisqartma va shartli belgilari

YaHM	—	yalpi hududiy mahsulot	l.	—	litr
%.	—	Foiz	0,0	—	katta bo‘limgan miqdor
mlrd.	—	milliard	m.	—	marta
mln.	—	million	—	—	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSh doll.	—	million AQSh dollari	ga.	—	hektar
kv.	—	kvadrat	tn.	—	tonna
km.	—	kilometr	yo‘lovchi/km	—	yo‘lovchi-kilometr
m	—	metr	<sup>1)</sup> , <sup>2)</sup> , <sup>3)</sup> .....	—	izohning mavjudligi

## MUNDARIJA

Nomi	bet.
<b>ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR</b>	<b>6</b>
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH	7-11
II. SANOAT	12-32
III. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	33-47
IV. XIZMATLAR	48-67
V. TRANSPORT	68-69
VI. ISTE'MOL BOZORI	70-79
VII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	80-90
VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)	91-97
IX. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	98-104
X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	105-114
XI. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	115-117
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	118-126

**Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar  
2021 -yil yanvar-iyun oylari**

	<i>mldr. so‘m</i>	<i>2020 -yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Yalpi hududiy mahsulot</b>	<b>55890,3</b>	<b>114,0</b>
Sanoat mahsuloti	36630,2	113,8*
Iste’mol tovarlari	14270,1	114,8
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	23696,5	117,1
Qurilish ishlari	11553,7	117,1
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	989,8	125,4
Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi-km)	5108,0	113,2
Chakana tovar aylanmasi	26365,0	115,7
Xizmatlar, jami	47186,2	121,5
<b>Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh doll.)</b>	<b>6946,6</b>	<b>130,8</b>
Eksport	1734,2	138,1
Import	5212,4	128,6
Saldo (+;-)	-3478,2	x

\* Mahsulotning fizik hajmi 2021-yil yanvar-iyun (2020- yil yanvar-iyunga nisbatan)


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) hajmi joriy narxlarda 55890,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 114,0 foizga teng bo'ldi.

### **Yanvar-iyun oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish**

	<i>mldr. so'm</i>		<i>2020-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>44072,9</b>	<b>55890,3</b>	<b>114,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	40172,3	50175,2	113,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	3900,6	5715,1	115,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>40172,3</b>	<b>50175,2</b>	<b>113,9</b>
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	17505,8	21589,9	114,5
Sanoat	13812,6	16664,2	113,8
Qurilish	3693,2	4925,7	117,1
Xizmatlar	22666,5	28585,3	113,5
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5838,5	7515,8	111,0
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	4475,6	5710,4	118,8
Boshqa xizmat tarmoqlari	12352,4	15359,1	112,8


**YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**




Toshkent shahri iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish indeksi – 113,8 % ni tashkil etib (YaHM tarkibidagi ulushi 33,2 %), qurilish – 117,1 % (9,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 111,0 % (15,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 118,8 % (11,4 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 112,8 % (30,6 %) ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi**  
*(jamiga nisbatan foizda)*

**2020 - yil yanvar-iyun**




**2021 - yil yanvar-iyun**



- **savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**
- ▣ **tashish va saqlash, axborot va aloqa**
- ▢ **xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar**

2021-yil yanvar-iyun oylari davomida Toshkent shahri bo'yicha savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 15,0 % ni (2020 yil yanvar-iyunda 14,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 11,4% ni (11,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi 30,6 % ni ( 30,8 %) tashkil etdi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi,  
(jamiga nisbatan foizda)**




Toshkent shahri iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi yalpi hududiy mahsulotning 89,8 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'i yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi hisobot yilida 43,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotning tarkibidagi ulushi esa 57,0 % ni tashkil etdi.

2021 yil yanvar-iyun oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 20579,7 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga o'sgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallahishi oqibatida YaHMda kichik biznesning ulushi 49,5 % ni tashkil qildi.


### **Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi**

*(yanvar-iyun oylari, jamiga nisbatan ulushi)*



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,5 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,0 punktga o'sgan.

### **Yalpi ichki mahsulotda Toshkent shahrining ulushi, foizda**




## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 36630,2 mldr. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 113,8 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilda 14270,1 mldr. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 yil yanvar-iyunga nisbatan o'sish 114,8 % ni tashkil etdi. Jumladan, 4577,1 mldr. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 9067,9 mldr. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2020 yil yanvar-iyunga nisbatan mos ravishda 110,5 % va 117,1 %) ishlab chiqarildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 112,9 % ga, tog'-kon va ochiq konlarni ishslash sanoati 108,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 104,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 80,8 % ga pasayishini ko'rshimiz mumkin.

### Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (mldr. so'mda)



## Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati


Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2021 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36630,2 mlrd. so‘mni va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi 113,8 % tashkil etdi.

O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 19,2 % ga, asosiy farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarish 15,3 % ga, avtotransport vositalar, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish 12,8 % ga oshgan bo‘lsa, kiyim ishlab chiqarish 9,3 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog‘ining ulushi 8,7 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali 11,9 % ni, o‘rta-quyi texnologiyali 21,0 % ni, quyi texnologiyali 26,3 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning  
texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, foizda**



## **Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-iyun oylarida tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 7232,8 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 108,2 % ni tashkil qildi.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga 18,1 % ga oshgan, boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 37,1 % ga kamayganini kuzatish mumkin.

## **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1950,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 80,8 % ni) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 19,2 % ga kamaygan.

## **Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 603,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 104,0 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2021-yil yanvar-iyun oylarida suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga oshgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini  
ishlab chiqarish hajmi**  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz hisobida</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>36630,2</b>	<b>121,4</b>
<b>Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	7232,8	117,1
Xom neft va tabiiy gaz	7173,0	118,1
Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari	56,0	62,9
Tog‘-kon sanoatida texnika xizmatlari	3,8	26,1
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>26842,7</b>	<b>126,7</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	3410,0	96,5
Ichimliklar	1910,5	132,6
Tamaki mahsulotlari	143,8	178,4
To‘qimachilik mahsulotlari	2032,4	150,6
Kiyimlar	425,8	90,7
Charm va charmdan mahsulotlar	57,7	74,6
Yog‘och hamda yog‘och va po‘kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to‘qish uchun materiallardan yasalgan buyumlar	347,5	106,2
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari	475,4	86,3
Nashr qilish xizmatlari va yozilgan materiallarni aks ettirish bo‘yicha xizmatlar	446,1	99,3
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	49,6	81,8

(davomi)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz hisobida</i>
Kimyo mahsulotlari	1043,1	97,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va farmatsevtika preparatlari	724,3	115,3
Rezina va plastmassa buyumlar	1237,1	104,0
Boshqa nometall mineral buyumlar	1578,5	119,2
Metallurgiya sanoati	3502,9	221,4
Mashina va asbob-uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar	1482,0	121,9
Kompyuterlar, elektron va optik uskunalar	2536,2	427,7
Elektr uskunalar	3053,9	126,7
Boshqa guruhlarga kiritilmagan mashinalar va uskunalar	1000,7	74,4
Avtotransport vositalari, pritseplar va yarim pritseplar	125,8	112,8
Boshqa transport vositalari va uskunalar	243,0	94,7
Mebel	273,4	86,2
Boshqa mahsulotlar	243,0	76,4
Mashinalar va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish bo‘yicha xizmatlar	481,1	103,8
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’mirlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>1950,9</b>	<b>81,4</b>
Elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo	1950,9	81,4
<b>Suv bilan ta’mirlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>603,7</b>	<b>145,2</b>
Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash	137,0	105,4


(davomi)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz hisobida</i>
Kanalizatsiya tizimi	0,4	51,7
Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish	466,2	163,6
Tiklash va chiqindilarni yo‘qotish sohasidagi boshqa xizmatlar	0,1	49,7
<b>Iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish</b>	<b>14270,1</b>	<b>114,8</b>
shu jumladan:		
oziq-ovqat tovarlari	4577,1	106,3
nooziq-ovqat tovarlari	9017,9	98,9
Aroq va sharob mahsulotlari	0,7	142,2

Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e’tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida 19953,1 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish hajmiga 54,5 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga davlat sektorida 12352,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiyligi hajmiga nisbatan 33,7 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 24277,3 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiyligi hajmiga nisbatan 66,3 % ni tashkil etdi.

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida 2021 -yil yanvar-iyun oylarida (foiz hisobida)




Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan 2021-yil yanvar-iyun oylarida 19953,1 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.


Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,2 % ni, qayta ishlash sanoati 112,9 % ni, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo 80,8 % ni, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bilan bo‘yicha xizmatlar 104,0 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan foizda)**

**2020 -yil yanvar-iyun**



**2021-yil yanvar-iyun**



- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat  
mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi  
(yirik korxonalar bo'yicha)**

O'lchov birligi	2021- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
-----------------	-----------------------	---------------------------------------

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Neft	Ming tn	327,7	109,2
Gaz kondensanti	Ming Tn	376,1	97,0
Tabiiy gaz	Mln. kub.m	17750,1	99,9
Chaqiq tosh	Tonna	269548,6	125,1

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-iyun</i>	<i>2020- yil yanvar-iyunga nisbatan % da</i>
<b>Qayta ishlash sanoati</b>			
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>Tonna</i>	18808,0	46,0
O'simlik yog'i yoki moyining kunjarasi	<i>Tonna</i>	1,3	0,1
Quyultirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog'liligi 6%dan yuqori sut va qaymoq	<i>Tonna</i>	2541,9	113,4
Margarin va spredlar (pastasimon mahsulot)	<i>Tonna</i>	2216,0	87,1
Aroq	<i>ming l 100%li spirit</i>	8666,1	82,7
Konyak spiriti (konyak distillyati)	<i>ming l 100%li spirit</i>	2114,3	65,4
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirit nastoykalari, konyak spiritidan tashqari	<i>ming l 100%li spirit</i>	280,4	95,0
Piva	<i>ming l</i>	39059,4	132,5
Tamaki mahsulotlari	<i>mln dona</i>	883,8	145,6
Paxtadan yigirilgan ip	<i>Tonna</i>	21146,1	189,8
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar	<i>Ming dona</i>	9320,9	147,0
Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar	<i>Ming dona</i>	157	102,5
Ichdan kiyiladigan kiyimlar	<i>Ming dona</i>	1733,0	91,4
Yarim sellyulozadan tayyorlangan gofrirovka qilish uchun qog'oz (o'rtacha taramlangan)	<i>Tonna</i>	790	86,0

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-iyun</i>	<i>2020 - yil yanvar-iyunga nisbatan % da</i>
Daftarlar	<i>Tonna</i>	16,1	22,0
Qutilar, kartondan yashiklar gofraviy qog'oz yoki kartonlar	<i>Tonna</i>	887,8	12,0
Kitoblarni,geografik xaritalarni,barcha turdag'i gidrografik yoki shunga o'xshash xaritalarni,reproduksiyalarni,rasm va fotosuratlarni,postkartalarni chop etish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so 'm</i>	49049533,0	77,5
Gazetalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so 'm</i>	13920064,0	92,6
Savdo-reklama kataloglari, prospektlar, plakatlar va boshqa bosma reklama mahsulotlarini bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so 'm</i>	4568211,0	94,9
Haftada to'rt martadan kam chiqadigan jurnallar va davriy nashrlarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so 'm</i>	1767584,0	64,3
Suyultirilgan propan va butan	<i>ming t</i>	251,1	101,9
Texnik oltingugurt	<i>Tonna</i>	129400,0	92,7
Murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar; bo'yoq va lakkarni o'chirish uchun tayyor tarkiblar	<i>Tonna</i>	29,0	170,6
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida	<i>Tonna</i>	8208,0	92,7
Boshqa guruhlarga kiritilmagan suvsiz muhiddagi boshqa sintetik polimerlar asosidagi bo'yoqlar va laklar	<i>Tonna</i>	4012,0	105,6
Denaturalmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'limgan etil spirti	<i>ming l</i>	6932,0	86,2

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar - iyun</i>	<i>2020- yil yanvar- iyunga nisbatan % da</i>
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan, tarkibida penitsillin yoki uning hosilalari bo‘lgan, penitsillan kislotasi tuzilmasiga ega yoki tarkibida streptomitsin yoki uning hosilalari bo‘lgan, terapevtik yoki profilaktika maqsadlarida ishlatiladigan medikamentlar	<i>Tonna</i>	48,0	91,6
Tarkibida gormonlar bo‘lgmagan, lekin antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar	<i>Tonna</i>	6526,6	3,3
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan, tarkibida boshqa antibiotiklar bo‘lgan medikamentlar	<i>Tonna</i>	1145,1	69,4
Sement, beton yoki sun’iy toshdan yig‘ma konstruksiylar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyumlar	<i>Tonna</i>	426397,3	3,0 m.
Sement, beton yoki sun’iy toshdan qurilish uchun g‘isht va bloklar	<i>Tonna</i>	565280,0	
Butilkalar	<i>ming dona</i>	167430,6	102,8
Temirdan yoki legirlanmagan po‘latdan bolg‘alangan, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho‘zilgan yoki ekstrudirlangan, keyin boshqa ishlov berilmagan boshqa chiviqlar va sterjenlar, jumladan prokatkadan keyin kalavalarga o‘ralgan chiviqlar	<i>Tonna</i>	67118,3	13,6 m.
Neft va gaz quvurlari uchun quvurlar,payvandlangan dumaloq uchastka,po‘latdan yasalgan	<i>Tonna</i>	7517,0	139,3
Elektr izolyatsiyasiz simli simlar,kabellar,o‘ralgan simlar va shu kabi alyuminiy mahsulotlar	<i>Tonna</i>	10358,3	189
Butilkalar	<i>ming dona</i>	167430,6	102,8
Izolyatsiya qilingan o‘rash simlari	<i>Tonna</i>	2054,2	117
Mis sim	<i>Tonna</i>	7894,2	2,1 m.

Temir, po‘lat yoki mis simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘sqliar; *Tonna* 168,7 22,8

Qishloq xo‘jaligi, bog‘dorchilik yoki o‘rmon xo‘jaligida ishlatish uchun dastaki asboblar	<i>Tonna</i>	0,3	78,4
Bug‘ qozonlari yoki boshqa bug‘ generator qozonlar; bug‘ qizdirgichli suv qozonlari	<i>Tonna</i>	2,4	104,1
1 kV dan ortiq kuchlanish uchun avtomatik o‘chiruvchilar	<i>Tonna</i>	40,7	46,0
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo‘lmagan elektr zanjirini o‘chirish, almashlab ulash yoki himoyalash uchun apparatura bilan jihozlangan taqsimlash shchitlari va boshqa panellar	<i>Tonna</i>	39,6	53,8
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo‘lmagan (past voltli), boshqa elektr toki o‘tkazgichlari	<i>Tonna</i>	1135,0	96,1
Sovutkichlar va muzlatkichlar; kir yuvish mashinalari; elektr ko‘rpalar; ventilyatorlar	<i>dona</i>	281802,0	152,1
Traktorlar	<i>dona</i>	173,0	27,5
Suyuqliklarni bir joydan boshqa joyga o‘tkazish uchun markazdan qochirma cho‘ktirma nasoslar	<i>dona</i>	113,0	168,7
Siyalkalar	<i>dona</i>	116,0	96,7

<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2021 yil yanvar-iyun</i>	<i>2020 yil yanvar-iyunga nisbatan % da</i>
------------------------	-----------------------------	---

### **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**

Elektroenergiya	<i>Mln.kVt soat</i>	170,4	101,5
Issiqlik energiyasi	<i>Ming Gkal</i>	7522,5	100,6
Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar	<i>Ming so‘m</i>	384774,0	66,2

<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021 yil yanvar-iyun</i>	<i>2020 yil yanvar-iyunga nisbatan % da</i>
------------------------	-----------------------------	---


### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Tabiiy suv, suvgaga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar	<i>Ming so'm</i>	93414119,0	113,4
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	<i>Ming so'm</i>	42992989,0	92,7
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish xizmati	<i>Ming so'm</i>	51601530,0	110,6
Zararsiz metal chiqindilari	<i>Tonna</i>	2596,0	73,2
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar	<i>Tonna</i>	553,4	127,7
Yuk ortish stansiyalarining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilar bilan bog'liq xizmatlari	<i>Ming so'm</i>	2014504,0	109,9
Xavfli (zaharli) kimyoviy chiqindilar	<i>Tonna</i>	218,7	99,8
Birlamchi elementlarning, birlamchi elementlar batareyalarining, elektr akkumulyatorlarning chiqindilari va parchalari	<i>Tonna</i>	100,0	4,2 m.

### **Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi**

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 30,1 % ulushini), Sergeli tumani (8,8 %), Mirobod tumani (8,4 %), Uchtepa tumani (6,9 %), Chilonzor tumani (6,9 %), Bektemir (6,6 %), hissasiga to'g'ri keladi. Shuning bilan birga, eng kam ulush Yangixayot (1,5 %), Yunusobod (5,1 %), Yakkasaroy (5,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda**  
**(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**




Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Toshkent shahri va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o‘sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 36630,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 121,4 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 13487,9 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 116,1 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent shahrida iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishi 14270,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan iste’mol tovarlari hajmi aholi jon boshiga 5254,5 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,8 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan (14,8 % ga) oshishiga ta'sir ko'rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 39,0 % ni tashkil etdi.

### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda (2021- yil yanvar-iyun oylarida)




Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 4577,1 mlrd. so'mga yetkazilib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 32,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 9017,9 mlrd. so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 63,2 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 675,1 mlrd. so'm hisoblanib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.

### Hududlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



**Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi, foizda  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)**



**Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarning  
o'sish sur'atlari, foizda (2021- yil yanvar-iyun oylarida,  
o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)**



Bunda, Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishning eng katta o'sish sur'atlari Yashnobod tumani (149,1 %), Mirobod tumani (136,9 %), Yakkasaroy tumani (126,1 %), Sergeli tumani (124,9 %) va Olmazor tumanlarida (121,8 %) kuzatilmoqda. Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng kichik o'sish sur'atlari Shayxontohur tumanlarida (89,3 %) Yunusobod tumani (78,0 %) va Chilonzor tumanlarida (72,1 %) kuzatilgan.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdag'i o'sish ta'minlandi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 33,0 % ni tashkil etgan.

### Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda (yanvar-iyun)

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangihayot tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 75,8 %), Olmazor (71,5 %), Chilonzor (61,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulushi Shayxontohur (20,7 %), Mirobod (20,0 %) va Yashnobod (15,0 %) tumanlarida kuzatildi.

### 2021-yil yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda




### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 12302,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 28,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 33,6 % ni tashkil qildi.

Qo'shma korxonalar tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 25,7 % ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.


**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
sanoatning umumi hajmidagi ulushi, foizda  
2021- yil yanvar-iyun oylarida**




**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,4 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2190 ta korxona jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining (13,3 %) Olmazor tumaniga, 2027 ta korxona (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1920 ta korxona (11,7 %) Uchtepa tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik  
(2021- yil 1-iyul holatiga)**



**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**



2021-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida 1186 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, ulardan qariyb 11,7 % Chilonzor, 11,0 % Olmazor, 10,1 % Shayxontohur tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**


	Loyihalar soni, birlikda	Ishlab chiqarish hajmi, mln. so‘m	Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollarri	Yangi tashkil qilingan ish o‘rinlari soni, birlikda
Jami:	320	3961661	70,1	1941

*shundan;*

Bektemir	19	79519	1,0	13
Mirzo Ulug‘bek	87	198235	1,6	54
Mirobod	25	578645	0,0	5
Olmazor	33	113537	3,3	29
Sergeli	29	157812	2,3	497

	<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	<i>Ishlab chiqarish hajmi, mln. so‘m</i>	<i>Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari</i>	<i>Yangi tashkil qilingan ish o‘rinlari soni, birlikda</i>
Uchtepa	17	263738	-	105
Chilonzor	20	400890	18,2	88
Shayxontohur	10	350264	12,7	570
Yunusobod	19	70729	0,1	58
Yakkasaroy	27	31337	-	49
Yashnobod	19	1716446	30,9	463
Yangihayot	15	509	-	10

**Mahalliylashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda 2021- yil yanvar-iyun oylarida**



## **Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish**

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishda o‘zgarish indekslari** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir; Iste’mol mollari – asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot;

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash** Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.


**Mahalliylashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.

### III. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

Joriy yilning yanvar–iyun oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 23696,5 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi va 2020-yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ni tashkil qildi.

**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’ati  
(2021- yil yanvar-iyun)**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Mirobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 26,3 % o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Yunusobod tumani jami investitsiyalar hajmidan 13,2 % ni, Shayxontoxur tumani 11,6 % ni tashkil etmoqda.

Yashnobod tumani 8,8 % va Olmazor tumanida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 7,1 % ni tashkil etdi.

Bektemir va Yakkasaroy tumanlarida investitsiyalar eng kam o‘zlashtirilgan bo‘lib, har birining Toshkent shahridagi ulushi 3,2 % va 2,4 % ni tashkil etdi.

**Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning hududlar  
bo‘yicha taqsimlanishi ( 2021- yil yanvar-iyun)**

*mln. so‘m*

	<i>Jami investitsiyalar</i>	<i>Markazlashgan</i>	<i>Markazlashmagan</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>23696452,7</b>	<b>6203664,9</b>	<b>17492787,8</b>
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	755201,8	7837	747364,8
Mirzo Ulug‘bek	1288655,6	245702,3	1042953,3
Mirobod	6233413,5	4271215,8	1962197,8
Olmazor	1681461,2	87698,2	1593762,9
Sergeli	1378444,3	40144,7	1338299,6
Uchtepa	1076970	108304,6	968665,4
Chilonzor	1362898,3	233824,4	1129073,9
Shayxontohur	2744508,6	667813,2	2076695,5
Yunusobod	3128756,4	411671,8	2717084,6
Yakkasaroy	1406713,2	39728,7	1366984,5
Yangihayot	4561425,8	905	560520,8
Yashnobod	2078004	88819,2	1989184,7

Markazlashgan investitsiyalarning asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Mirobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 68,8 % o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Shayxontohur tumani jami investitsiyalar hajmidan 10,8% ni, Yunusobod tumani 6,6 % ni tashkil etmoqda.


Markazlashmagan investitsiyalarning asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,5 % o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Shayxontohur tumani jami investitsiyalar hajmidan 11,9% ni, Yashnobod tumani 11,4 % ni tashkil etmoqda.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**  
**(2021- yil yanvar-iyun)**


	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>23696,5</b>	<b>117,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>6203,7</b>	<b>247,8</b>	<b>26,2</b>
budjet mablag'lari	1388,2	99,2	5,9
Davlat maqsadli jamg'armalari	4,9	10,1	0,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	567,1	651,9	2,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	4243,5	437,9	17,8
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>17492,8</b>	<b>98,5</b>	<b>73,8</b>
korxona mablag'i	7100,7	70,5	30,0
aholi mablag'i	731,0	101,9	3,0
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	6104,9	112,4	25,8
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	3556,2	225,7	15,0

**Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi, (umumiy hajmga nisbatan, %da)**




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 6203,7 mlrd.so‘m yoki 247,8% (jami investitsiyalar hajmining 26,2% ga) ko‘p o‘zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 17492,8 mlrd.so‘m yoki 98,5 % (jami investitsiyalardagi ulushi 73,8 %).

**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari**




## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, foizda



Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 25,8%), korxona mablag'lari (30,0 %) hisobiga to'g'ri keldi.

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda (2021 - yanvar-iyun)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 7342,1 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 31,0 % o'zlashtirilgan.

Keyingi o'rinda qurilish tarmog'i bo'lib, jami moliyalashtirish manbai hisobidan 2716,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 11,5 % o'zlashtirilgan.


Sanoat tarmog'i tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Elektr energiyasi gaz bug' va konditsiyalangan havo ishlab chiqarish 2696,5 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 11,4 %);

- Elektr uskunalarini ishlab chiqarish 1143,8 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,8 %).

- Boshqa nometal mahsulotlar ishlab chiqarish 667,7 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2,8 %);

### **Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha texnologik tarkibi**




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Toshkent shahri bo'yicha qurilish-montaj ishlaringin ulushi 35,3 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar 58,2 % ni hamda boshqa xarajatlar ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulkchilik shakllari  
bo'yicha texnologik tarkibi  
(2021-yil yanvar-iyun)**

	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
<b>Jami, mldr. so'm</b>	<b>23696,5</b>	<b>2363,4</b>	<b>21333,1</b>
<i>shu jumladan jamiga nisbatan % da:</i>	<b>100,0</b>	<b>10,0</b>	<b>90,0</b>
Qurilish – montaj ishlari	8364,4	1480,1	6884,3
Mashina, uskuna, inventar	13799,3	811,0	12988,3
Boshqa xarajatlar	1532,8	72,3	1460,5


**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, foizda  
(2021-yil yanvar-iyun)**



■ Qurilish montaj ishlari      ■ Mashinalar, uskunalar, inventarlar      ■ Boshqa xarajatlar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Qurilish – montaj ishlari bo'yicha Mirobod tumanida 78,5 %, Yangihayot tumanida 78,2 %, Bektemir tumanida 71,3 % ni, Yashnobod tumanida 67,8 % ni hamda Yakkasaroy tumanida 58,1 % ni tashkil etdi. Mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar bo'yicha Yunusobod tumanida 55,3 % ni, Mirzo Ulug'bek tumanida 49,2 % ni, Shayxontohur tumanida 48,9 % ni, Uchtepa tumanida 47,9 % ni hamda Olmazor tumanida 46,1 % ni tashkil qildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab  
chiqarish tarkibi, foizda  
(2021- yil yanvar-iyun)**




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida: yangi qurilish bo‘yicha Yangihayot tumanida 69,5 % ni, Yunusobod tumanida 55,4 % ni, Sergeli tumanida 54,0 % ni hamda Olmazor tumanida 47,7 % ni tashkil etdi. Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish bo‘yicha Bektemir tumanı 44,4 % ni, Yakkasaroy tumanida 37,8 % ni, Shayxontohur tumanı 36,6 % hamda asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida boshqalar yo‘nalishida Mirobod tumanida 71,0 % ni va Yashnobod tumanida 45,1 % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan  
asosiy kapitalga investitsiyalar**  
*(2021- yil yanvar-iyun)*

	<i>Mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	
		<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami</b>	<b>23696,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:</i>			
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	259,4	0,9	1,1
Tog‘ - kon sanoati	146,2	0,5	0,6
Ishlab chiqarish sanoati	7342,1	27,8	31,0
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	816,2	5,8	3,4
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	54,4	0,4	0,2
Qurilish	2006,4	7,1	8,5
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	1014,4	4,3	4,3
Tashish va saqlash	2716,2	5,5	11,5
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	616,7	3,5	2,6
Axborot va aloqa	1307,1	8,8	5,5
Moliya va sug‘urta faoliyati	693,8	3,5	2,9
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1475,5	3,4	6,2
Ta’lim	551,5	1,9	2,3
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1733,3	6,5	7,3
